

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE, AND INNOVATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**“HUDUDLARDA IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH:
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
Buxoro shahri, 14-noyabr 2025 yil**

**«УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ В РЕГИОНАХ: ПРОБЛЕМЫ
И РЕШЕНИЯ»
РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
г. Бухара, 14 ноября 2025 года**

**“SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT IN THE REGIONS:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”
NATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE**

Bukhara, November 14, 2025

Shu bois ARWU reytingi, avvalo, ilmiy-tadqiqot salohiyati, nobelchilar va yuqori iqtibosli olimlar ulushi orqali universitetlarning global raqobatbardoshligini baholash vositasi sifatida qabul qilinadi.

4. Webometrics Ranking of World Universities. Webometrics (Ranking Web of Universities) 2004 yildan buyon Ispaniya Milliy tadqiqot kengashining Cybermetrics Lab guruhi tomonidan ishlab chiqiladi va universitetlarning internetdagi mavjudligi hamda veb-resurslarining ilmiy-axborot ta'sirini baholashga qaratilgan. Reyting har yili yanvar va iyul oylarida yangilanadi.

Hozirgi metodologiya asosan quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi (an'anaviy S, V, R, Sc to'rtligi o'rniga):

Impact/Visibility (ta'sir va ko'rinish, taxminan 50%) – universitet saytiga tashqi havolalar (backlinks, site citations) soni;

Transparency/Openness (ochiqlik, taxminan 10%) – Google Scholar orqali eng ko'p iqtibosga ega mualliflar profilari va ochiq hujjatlar ko'rsatkichlari;

Excellence (ilmiy yuksaklik, taxminan 40%) – Scopus/Web of Science bazalaridagi eng nufuzli jurnallarning 10%li qatorida chop etilgan maqolalar soni.

Ushbu reytingda veb-saytning kontenti, uning yangilanish chastotasi, ochiq ilmiy repozitoriylar mavjudligi va elektron hujjatlar hajmi universitetning "raqamli izi"ni shakllantiradi.

Oxirgi nashrlarda Webometrics reytingida ham etakchi o'rinlarni Garvard universiteti, Stenford universiteti, MIT, Oksford universiteti, Vashington universiteti, Michigan universiteti kabi yirik ilmiy markazlar egallab kelmoqda.

Reytinglar va oliy ta'lim xizmatlarining xalqaro raqobatbardoshligi

YUqorida ko'rib chiqilgan global reytinglar – QS, THE, ARWU va Webometrics – oliy ta'lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini turli rakurslardan baholash imkonini beradi:

QS – akademik nufuz, bitiruvchilar iste'molchilar (ish beruvchilar) uchun qay darajada qadrli ekani, internatsionallashuv va barqaror rivojlanishni kompleks hisobga oladi;

THE – ta'lim muhiti, tadqiqot muhiti, tadqiqot sifati, xalqaro ko'lam va sanoat bilan integratsiyani mufassal indikatorlar asosida baholaydi;

ARWU – eng avvalo, ilmiy natijalar, nobelchilar, yuqori iqtibosli olimlar, nufuzli jurnallardagi maqolalar orqali "oliy liga" universitetlarini saralab oladi;

Webometrics – universitetlarning raqamli kabiliyati, ochiq ilmiy axborot siyosati va veb-resurslaridagi ilmiy kontent ta'sirini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, global reytinglar oliy ta'lim muassasalarining ilmiy, ta'limiy va innovatsion salohiyatini baholashda muhim diagnostik vosita hisoblanadi. Reytinglardagi o'rinlar universitetning nafaqat ilmiy samarasini, balki xalqaro obro'si, mehnat bozori uchun ahamiyati va raqamli imkoniyatlarini belgilaydi.

O'zbekiston universitetlarining ushbu reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashi uchun:

- ✓ ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish;
- ✓ xalqaro hamkorlikni kengaytirish;
- ✓ professor-o'qituvchilar salohiyatini kuchaytirish;
- ✓ raqamli ma'lumotlar bazalari va ochiq ilmiy platformalarni rivojlantirish;
- ✓ ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zarur.

Global reytinglar oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda strategik yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

BUXORO SADOSI: AN'ANAVIY MUSIQA MEROSINING KREATIV TURIZM PLATFORMASIGA TRANSFORMATSIYASI

Kurbanova Mohinur Xabib qizi

BuxDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti katta o'qituvchisi, i.f.f.d.

Ikromova Shaxinabonu Ilg'or qizi

BuxDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti 1-bosqich magistranti

Buxoro O'zbekistonning eng qadimiy madaniy markazlaridan biri bo'lib, asrlar davomida o'zining musiqiy merosi bilan ajralib turgan hudud sifatida shakllangan. Mazkur shahar madaniy

qatlamida mavrigi, shashmaqom, xalqona lirika kabi musiqiy yo‘nalishlar alohida o‘rin tutib, ular xalqning ruhiyati, hissiy tafakkuri va tarixiy xotirasini mujassamlashtiradi. Bugungi kunda ushbu meros zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, kreativ yondashuvlar va innovatsion metodlar bilan qayta o‘rganilishni talab etmoqda. Chunki globallashuv, ommaviy madaniyat va raqamli axborot oqimi davrida an‘anaviy musiqaning yoshlar orasida qabul qilinish darajasi sezilarli miqyosda o‘zgaryapti. Shunday bir vaziyatda, Buxoro markazida interaktiv musiqa-haykaltaroshlik majmuasini yaratish shahar brendini boyitadi, mehmonlarning madaniy tajribasini kengaytiradi va shuningdek, UNESCOning “Living Heritage” tamoyillariga uyg‘un tarzda merosni yashatish imkonini beradi.

Madi Ibodov va Oliyaxonim Hasanova ijodi Buxoro musiqa maktabining eng yorqin namunalaridan biri bo‘lib, ularning merosini badiiy haykaltaroshlik, dizayn va raqamli texnologiyalar orqali keng jamoatchilikka taqdim etish katta ahamiyat kasb etadi. Madi Ibodov *mavrigi ijrochiligidan yuksak namunalari yaratgan*, XX asr musiqachilar avlodining yetakchi vakillaridan bo‘lib, pozitivizm va shijoati orqali Buxoroning betakror ohangini butun mintaqada tanitgan va xalq orasida Madi deb hanuzgacha ardoqlanadi. Oliyaxonim esa barchaga ma‘lum bo‘lgan mumtoz lirika, nafis ovoz madaniyati va sahna ohangdorligi bilan *Buxoro ayol ijrochiligi maktabini shakllantirgan* noyob san‘atkor hisoblanadi. Ularning ijodi Buxoroning musiqiy estetikasini mavrigining yumshoqligi, xalqona lirikaning samimiyligi va mahalla madaniyatining bosiqligini mujassam etadi.

Madi Ibodov va Oliyaxonim Hasanova majmuasi shunchaki tarixiy yodgorlik bo‘libgina qolmay, balki Buxoro xalqining boy musiqiy an‘analarini aks ettiruvchi “tirik haykal” bo‘ladi. Kompozitsiya, o‘z navbatida, Buxoro shahrining sayyohlar ancha kam tashrifi kuzatiladigan Gavkushon majmuasi, ya‘ni, Gavkushon madrasasi, Xo‘ja Kalon masjidi hududida, Mavrigi restorani oldidagi Gavkushon hovuzi bo‘yida joylashtiriladi. Buning sababi, bu hududda sayyohlar oqimi nisbatan kam bo‘lib, interaktiv tajriba uchun qulay muhit yaratadi, maydon kattaligi esa Poyi Kalon kompleksi bilan vizual uyg‘unlik hosil qiladi. Bunday tarixiy muhitda, Madi Ibodovning ovozini eshitish turistga ta‘sirchan tajriba taklif qilish orqali Buxoro shahrining mashhur Eski shahar hududida zamonaviy yechimni joriy etgan dastlabki namunalardan biri bo‘lib hisoblanadi, ya‘ni bu monument nafaqat Buxoro mintaqasidagi novatorlik, nafaqat O‘zbekiston hududida ham kreativ turizm yo‘nalishidagi sa‘y-harakatlarga yaqqol misol bo‘la oladi balki mamlakat imidjini yaxshilashga turtki bo‘la oladi desak, yangilash bo‘lmaydi. Kompozitsiya Buxoroning “Chorzarb”, “Shashmaqom” an‘anasini jonli holatda saqlay olish, “Mavrigi” an‘anasi yaralishini yoritish hamda kelajak avlodlarga nafaqat bu noyob musiqa madaniyatini, balki, milliylik ruhini his qila olish imkoniyatini bera oladi. Turistik nuqtai-nazaridan oladigan bo‘lsak, bu yerga kelgan turistlarga qayta tashrif buyurish hissi va bu hissiyotni boshqalar bilan baham ko‘rish istagi yuqori bo‘ladi, bu, o‘z navbatida, uzoq muddatli turizm oqimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur obyekt ochiq jamoat makoniga joylashtirilib, mahalliy aholi va sayyohlar uchun interaktiv, esdalik qoldiruvchi va madaniy tajriba yaratadi. *Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi* - Buxoroning boy musiqiy an‘analarini turizm, san‘at va texnologiya chorrahasida qayta jonlantirish va XXI asr auditoriyasiga zamonaviy talqinda yetkazishdir.

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmonining birinchi, Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish bo‘limi 1.5. Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar bandidagi 42 - “Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish” maqsadidagi “30 tadan ortiq nomoddiy madaniy meros elementini chuqur ilmiy tadqiq etish” vazifasidan kelib chiqqan holda mazkur “Buxoro sadosi” kompozitsiyasi g‘oyasi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-9-son Farmoni ijrosini ta‘minlash hamda turizm sohasini raqamlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator ishlar ilgari surilgan. Mazkur Madi Ibodov va Oliyaxonim Hasanova monumenti qoshida tashkil etiladigan interaktiv jadvalning o‘rnatilishi – bu madaniy merosni zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali boyitish imkonini berishi, turistlarga Madi Ibodov

va Oliyaxonim qo‘shiqlarining raqamli bazasini tashkil etilishi orqali bu loyiha madaniy ma’lumotlarni oson olinadigan va qulay formatda taqdim etish bo‘yicha farmonda belgilangan vazifalarga mos keladi.

Mazkur maqola doirasida tadqiqot ishlari kompleks yondashuv asosida madaniyatshunoslik, turizmologiya, san’at sotsiologiyasi fanlarining metodologik yondashuvlari hamda madaniy meros, innovatsiya, dizayn va iqtisodiy tahlilni uyg‘unlashtiradigan kreativ industriyalar metodologiyasi amalgamasi qo‘llanilib, asosiy e’tibor Buxoroning madaniy merosini zamonaviy turizm konsepsiyasi bilan bog‘lashga qaratildi. Tadqiqot quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida olib borildi.

1. Tarixiy-tahliliy yondashuv. Madi Ibodov va Oliyaxonim Hasanova ijodi orqali Buxoro musiqa maktabining Buxoro madaniy merosidagi o‘rnini aniqlash, “Mavrigi”, “Chorzarb” janrining shakllanish jarayonini tarixiy asosda o‘rganish uchun qo‘llanildi. Tadqiqotda Buxoro viloyat arxivi, O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi fondi yozuvlari va ijtimoiy tarmoqlari (YouTube, Facebook) kontent tahlili amalga oshirilishi natijasida bu musiqa siymolarining ahamiyati naqadar muhimligi, tadqiqotning natijadorlikka erishishida qo‘shadigan hissassi aniqlandi.

2. Kuzatuv metodi. Loyiha joyi sifatida tanlangan Buxoro shahrining Eski shahar qismida joylashgan Gavkushon kompleksi, xususan, “Mavrigi” restoran majmuasi oldi hududida tizimli kuzatuv ishlari olib borilib, hududning turistik jozibadorlik darajasi, yoritish holati va tashqi makon estetikasi tahlil qilindi, san’at kompozitsiyasi uchun optimal joylashuv nuqtalari aniqlandi.

3. Ekspert-intervyu metodi. Bir yil mobaynida Buxoro viloyati madaniyat mutaxassislari, turizm sohasi vakillari, san’atshunoslar va yosh ijodkorlar bilan suhbatlar tashkil etilib, maqolaning madaniy va turistik qabul qilinish darajasi baholangan.

4. SWOT-tahlil. Maqolaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va xavf omillari tizimli tahlil qilindi. Tahlilda Buxoro madaniy turizm strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “2022-2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 543-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonlari bilan moslik darajasi o‘rganildi.

Loyiha doirasida Buxoro shahrining madaniy salohiyati, ijodiy merosi va san’at an‘alarining UNESCOning “Creative Cities” konsepsiyasi mezonlariga muvofiqligi ilmiy asosda o‘rganildi. Xususan, Madi Ibodov va Oliyaxonim ijodiy merosi, shuningdek, mavrigi musiqiy yo‘nalishining Buxoro brendi shakllanishiga qo‘shgan hissassi UNESCOning “Creative Cities of Music” tarmog‘iga xos mezonlar bilan taqqoslab o‘rganildi. Mazkur tahlil Buxoroning xalqaro miqyosda “Ijodiy shahar” maqomini olish istiqbollari belgilashga, shuningdek, madaniyat va turizm integratsiyasi orqali shahar imijini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu bosqich tadqiqotning barqaror turizm modeli sifatida iqtisodiy va ijtimoiy asoslanishini ta’minladi.

5. Kreativ sintez metodi. Ushbu tadqiqot nazariyasi milliy meros, zamonaviy san’at, turizm va texnologiyani uyg‘unlashtiruvchi kreativ sintez yondashuvi doirasida Buxoro shahrining boy madaniy merosi va musiqiy an‘analari, xususan, maqom va mavrigi janrlari, raqamli formatga o‘tkazilib, sensorli audio tizimlar orqali interaktiv tajriba yaratish rejalashtirilgan. Bu orqali turistlar nafaqat vizual, balki akustik va hissiy tajriba orqali madaniy meros bilan bevosita interaktiv aloqada bo‘lishlari mumkin bo‘ladi. Natijada, mazkur maqolada ilgari surilgan kompozitsion san’at loyihasi nafaqat estetik jihatdan boy, balki interaktiv, immersiv va barqaror turizm obyektiga aylanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur maqolada oldinga surilgan g‘oya, ya’ni “Buxoro Sadosi: Madi va Oliyaxonim” kompozitsion san’at loyihasi O‘zbekiston turizm infratuzilmasiga bir nechta innovatsion yondashuvlarni olib kiradi. *Birinchidan*, haykal va audio-arxiv integratsiyasi orqali moddiy va nomoddiy madaniy meros bir nuqtada birlashtirilib, turistga eshitiladigan, his qilinadigan yangi *tajribaviy turizm* turi yaratiladi.

Ikkinchidan, “Smart tourism” tamoyillariga asoslangan interaktiv audio-tanlov funksiyasi madaniy merosni shaxsiylashtirilgan raqamli xizmat sifatida taqdim etish imkonini berdi.

Uchinchidan, haykalning Gavkushon mahallasida joylashtirilishi orqali urbanistik makonda yangi turistik oqim nuqtasi shakllantirilib, mahalla hududining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi “magnit” zonasi yaratiladi.

Ushbu maqoladagi loyiha Buxoro turistik muhitiga innovatsion yondashuv olib kirib, an’anaviy

yodgorlik tushunchasini yangi bosqichga ko'tarmoqda. Loyiha moddiy va nomoddiy merosni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib, turistlar uchun yanada boy, eshitiladigan va interaktiv madaniy tajriba yaratish imkonini beradi. Shuningdek, haykalning Govkushon mahallasiga joylashtirilishi mahalliy hududning turistik jozibasini oshirishi, iqtisodiy faolligini kuchaytirishi va yangi tashrif nuqtasini shakllantirishi kutilmoqda. Umuman olganda, ushbu g'oya Buxoroda innovatsion turizm amaliyotlarini joriy etish bo'yicha muhim strategik tashabbus sifatida baholanadi.

Toxirova Shaxrizoda Juma qizi. O‘ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDA “AQLLI” TEKNOLOGIYALAR JORIY ETILISHI HOLATI	658
Ahmedov Azimjon Olimjon o‘g‘li. HUDUDLAR KESIMIDA AGROCHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KLASSTERLARINI YARATISH VA YANGI ISH O‘RINLARI SHAKLLANTIRISH	662
Azimova Maxfuza Rashidovna. YASHIL INFRATUZILMANI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING ILMIY ASOSLAR EVOLYUTSIYASI.	664
M.Mo‘minova. SIRKULYAR IQTISODIYOT: EKOLOGIK VA IQTISODIY BARQARORLIK YO‘LI.....	668
Qudratov Azizjon Dehqonboyevich, QISHLOQ XO‘JALIGIDA SOVITKICHLAR QUVVATINI OSHIRISH KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH OMILI SIFATIDA	670
Turobova Hulkar Rustamovna. YASHIL TA‘LIMNING INTERAKTIV O‘QITISH USULLARI	672
Turobova Hulkar Rustamovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich. AGROCHIQINDILAR ASOSIDA TIKLANADIGAN QADOQLASH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISH – PLASTIK O‘RNINI BOSUVCHI EKOTOVARLAR	673
Zayniyev Diyorbek Zokir o‘g‘li. YASHIL IQTISODIYOT, SIRKULYAR JARAYONLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH O‘ZARO BOG‘LIQLIGI.....	676
Kadirova Maraljan Matyakubovna, Fayzulloyev Quvonchbek Salohiddin o‘g‘li. HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING O‘RNI	678
Nazirova Zulfina. DIRECTIONS FOR CREATING CIRCULAR PRODUCTS AND SERVICES IN SUSTAINABLE AGRICULTURE	680
Nuritdinov Ramziddin. SIRKULYAR IQTISODIYOTNING O‘ZIGA XOS TAMOYILLARI	686
Muxammadieva N.X. TURISTIK DESTINATSIYALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY MARKETINGNING O‘RNI.....	688
Алимова М.Т., Мухаммадиева Н.Х. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ТУРИЗМ КАК ДРАЙВЕР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	690
T.O.Umarov, M.T. Alimova. O‘ZBEKISTON OLIY TA‘LIM TASHKILOTLARILARINING GLOBAL AQOBATBARDOSHLIGI.....	694
Ш.Я.Абдусайдова, М.Т.Алимова. СТАНДАРТЫ GREEN KEY – ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ И УКРЕПЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ГОСТИНИЧНЫХ РЕДПРИЯТИЙ.....	696
T.O.Umarov, M.T. Alimova. GLOBAL REYTINGLAR OLIY TA‘LIM TASHKILOTLARINING ILMIY, TA‘LIMIY VA INNOVATSION SALOHIYATINI BAHOLASHDA MUHIM DIAGNOSTIK VOSITA.....	700
Kurbanobva M.X., Ikromova Sh.I., BUXORO SADOSI: AN‘ANAVIY MUSIQA MEROSINING KREATIV TURIZM PLATFORMASIGA TRANSFORMATSIYASI.....	713